LOTIN TILINI O‘RGANILISHIDA SIFAT SO‘Z TURKUMINING AHAMIYATI VA UNING LINGVISTIK TAHLILI

Xamdamova Muqaddas Xamidovna
SamDTU, Tillar kafedrasi stajyor assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada lotin tilini o‘rganishda eng asosiy omillardan biri hisoblangan sifat so‘z turkumi va uning grammatik kategoriyalari hamda ularning yasalishi xususida fikr yuritiladi. Tibbiy terminlarning yasalish usullari va bu terminlarning tibbiyotdagi roli haqida so‘z yuritiladi. Bu maqoladan tibbiy fanlar bo‘yicha talabalar o‘zlariga tanish bo‘lgan lotin ildizlariga asoslangan va lotincha so‘z yasash qoidalariga muvofiq qurilgan ilmiy terminlarni to‘laqonli tushuna olish, bu grammatik fragmentlarni tibbiy terminlar yasalishida qo‘llay olishi va ularni lingvistik tahlilini tushuna olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: Bilim ko‘nikma, sifat, grammatik fragment, metafora, metonimiya, sinekdoxa, suffiks, madaniy-ma’rifiy saviyalar, uch qo‘shimchali sifat, ikki qo‘shimchali sifat.

Аннотация. В статье рассматривается одна из ключевых составляющих изучения латинского языка — категория прилагательных, их грамматические категории и особенности словообразования. Особое внимание уделяется способам образования медицинских терминов и их роли в медицине. Статья позволяет студентам медицинских дисциплин полноценно понимать научные термины, построенные на знакомых латинских корнях и согласно правилам словообразования в латинском языке, применять грамматические элементы при формировании медицинской терминологии и проводить их лингвистический анализ.

Ключевые слова: знания и навыки, прилагательное, грамматический фрагмент, метафора, метонимия, синекдоха, суффикс, культурно-просветительский уровень, прилагательное с тремя суффиксами, прилагательное с двумя суффиксами.

Abstract. This article examines one of the key components in learning Latin — the category of adjectives, their grammatical categories, and features of their word formation. Special attention is given to methods of forming medical terms and their role in medicine. The article enables students of medical disciplines to fully understand scientific terms built on familiar Latin roots and according to Latin word-formation rules, apply grammatical fragments in the creation of medical terminology, and comprehend their linguistic analysis.

Keywords: knowledge and skills, adjective, grammatical fragment, metaphor, metonymy, synecdoche, suffix, cultural-educational level, three-suffix adjective, two-suffix adjective.

ISSN 3030-3907

KIRISH.

Lotin tili hind-yevropa tillari oilasiga mansub bo‘lib, uning grammatik tizimi mukammal va qat’iy qoidalarga asoslangan. Lotin tilida so‘z turkumlari orasida sifat (adiectivum) alohida o‘rin egallaydi. Sifatlar predmetning belgisi, xususiyati, holati yoki miqdoriy tavsifini ifodalaydi va asosan ot bilan bog‘lanib keladi. Lotin tilini o‘rganishda sifatlarning lingvistik tabiatini chuqur anglash muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Lotin tili shifokor va farmatsevtlarni tayyorlashda eng zarur fanlardan biri bo‘lib kelmoqda, bu tilini o‘quv predmeti sifatida o‘qitish bir qator o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Lotin tilini o‘rganish, tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining birinchi yilida samarali o‘quv jarayonini yaratish uchun muhim vazifadir. Lotin tilini o‘rganish juda mashaqqatli va kuchli idrok talab qiladi. Tibbiyot oliy o‘quv lotin tili kursini o‘rganish, chinakkam mashaqqatni talab qiladi – ya’ni terminologik jihatdan malakali shifokor tayyorlash hamda, shu bilan birga, talabalar madaniy-ma’rifiy saviyalarini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu borada lotin tili tarkibiy qismidagi ma’lum grammatik fragmentlarni ya’ni ot, sifat, fe’l va ularning grammatik kategoriyalarini o‘rganish hamda ularni amalda qo‘llay olish bilim va ko‘nikmalarini talab etadi. Lotin tilidagi shunday grammatik fragmentlardan biri bu sifat mavzusidir.

ASOSIY QISM. Lotin tilida sifatlar mustaqil so‘z turkumi bo‘lib, ular otga bog‘lanib, uning belgi-xususiyatini aniqlaydi. Sifatlar rod (genus), son (numerus) va kelishik (casus) jihatidan aniqlanayotgan otga moslashadi. Predmetning belgisini bildirib qanday? qanaqa? savollariga javob bo‘lib kelgan so‘zlarga sifat deyiladi. Lotin tilida sifatlar ot kabi rodlarda, sonlarda va kelishiklarda turlanadi. Sifatlarning o‘z qo‘shimchalari bo‘lmagani uchun ular I, II va III guruhdagi otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan turlanadi. Sifatlar 2 guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh sifatlari birinchi va ikkinchi guruhda turlanuvchi otlarning qo‘shimchalari bilan turlanadi. Ikkinchi guruh sifatlari uchunchi guruhda turlanuvchi otlarning qo‘shimchalari bilan turlanadi. Birinchi guruh sifatlari birinchi guruhda turlanuvchi otlarning Femininum rodiga tegishli Nom. Sing, dagi **-a**, qo‘shimchasi va ikkinchi guruhda turlanuvchi otlarning Masculinum rodiga tegishli Nom. Sing. da **-us, -er** qo‘shimchalariga va Neutrum rodiga tegishli Nom. Sing, da **-um** qo‘shirnchasiga ega bo‘ladi.

Birinchi guruh sifatlarining lug‘at shakli.

Lug‘atlarda sifatlarning lug‘at shaklini esda saqlash kerak, masculinum rodiga tegishli sifatning to‘liq shakli yoziib, keyin Femininum va Neutrum rodlarining Nom. Sing. qo‘shimchasi yoziladi. Masalan:

purus, a, um -toza ; ruber, bra, brum -qizil ; niger, gra, grum -qora

ISSN 3030-3907

1. Sifatlarni yasashda **-eus** va **-aceus** so‘z yasovchi qo‘shimchalari predmet belgisini, rangini va uning qanday moddadan yasalganligini ko‘rsatadi. Masalan:
ferr+eus - temirga oid: Ferrum - temir,
oss+eus - suyakka tegishli: os, ossis - suyak,
chart+aceus – qog‘ozga tegishli: charta - qog‘oz so‘zlaridan olingan.

2. Sifatlarni hosil qilishda **-idus** so‘z yasovchi qo‘shimchasi qo‘llanib, bunda predmetning tabiiy xususiyatlari (mazasi, og‘irligi va harakati) ko‘rsatiladi. Masalan: frig+idus-sovuq; grav+idus - og‘ir; faet+idus –sassiq.

3. **-osus** so‘z yasovchi qo‘shimchasi sifatlarda mo‘l-ko‘lchilik ma'nosini anglatadi. Masalan: aqu+osus - suvga serob; squam+osus – tangasimon; fibrin+osus - sertola.

4. **-icus**; **-imus, -ideus, -asus, -enthus** so‘z yasovchi qo‘shimchalari sifatlar hosil qilishda qo‘llaniladi. Masalan:
pancreat+icus - me'da osti beziga oid; palat+imus - tanglayga oid,
lamdo+ideus - lamdosimon (lamdovidli); coll+asus - qadoqli, qavariqli,
Ikkinchi guruh sifatlari ucinchi guruhda turlanuvchi otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan turlanadi. Ikkinchi guruh sifatlari uchta kichik guruhga bo‘linadi:

Uch qo‘shimchali (teng murakkab) sifatlar. Bunda har bir rod o‘zining alohida qo‘shimchasiga ega bo‘ladi:
Masculinum rodi **-er**: acer (m) - o‘tkir
Femininum rodi **-is**: acris (f) - o‘tkir
Neutrum rodi **-e**: acre (n) - o‘tkir.
Bu guruhning lug‘at shakli quyidagicha bo‘ladi: silvester, tris, tre -o‘rmonga oid
Ikki qo‘shimchali (teng murakkab) sifatlar. Bunda Masculinum va Femininum rodlari bir xil, Neutrum rodi alohida qo‘shimchaga ega bo‘ladi:
Masculinum, Femininum rodlari **-is**: medicinalis -tibbiy
Neutrum rodi **-e**: medicinale -tibbiy.
Bu guruhning lug‘at shakli quyidagicha bo‘ladi: letalis, e -o‘ldiruvchi.
Bir qo‘shimchali (noteng murakkab) sifatlar. Bunda hamma rod bir xil qo‘shimchaga ega bo‘ladi, ya'ni **-s, -x, -r** harflari bilan tugashi mumkin:
simple**x** -oddiy ; tere**s** -soqqasimon, dumaloq ; pa**r** -bir xil, teng.
Bu guruhning lug‘at shakli quyidagicha bo‘ladi. Birinchi Nom. Sing. shakli to‘liq yozilib, keyin Gen. Sing. ning kelishik qo‘shimchasi ko‘rsatiladi:
simplex, icis -oddiy ; teres, etis- dumaloq
par, paris -bir xil, teng.
5.-ilis, -bilis so‘z yasovchi qo‘shimchalari sifatning majxullik xususiyatini anglatadi. Fe’llarning negiziga qo‘shilib sifat hosil qiladi:

ISSN 3030-3907

facilis —yengil; facere — qilmoq, bajarmoq
mobilis —yengil, harakatchan; movere — harakatlanmoq

6.-alis, -aris so‘z yasovchi qo‘shimchalari sifatning biror narsaga qarashliligini, biror narsaga bog‘liqligini yoki biror narsadan kelib chiqqanligini ko‘rsatishi mumkin. Otlarning negiziga qo‘shilib sifat hosil qiladi:

lateralis — yonboshga tegishli; latus, lateris — yonbosh
plantaris — oyoq kaftiga oid; planta — oyoq kafti so‘zlaridan hosil qilingan.

Tibbiyotda qo‘llaniluvchi sifatlarning asosiy qismini ikkinchi guruh sifatlari tashkil qiladi. Ikkinchi guruh sifatlarining birinchi, ikkinchi hamda uchinchi guruhlarda turlanuvchi otlar bilan rodda, sonda va kelishiklarda moslashuvi. Ikkinchi guruh sifatlari birinchi, ikkinchi va uchinchi guruhlarda turlanuvchi otlar bilan rodda, sonda va kelishiklarda moslashadi, lekin kelishiklar bo‘yicha turlanganda qo‘shimchalari har xil bo‘ladi. Masalan:

1.Tinctura simplex — oddiy spirtli eritma:
tinctura, ae, f — spirtli eritma, simplex, icis — oddiy
2. Morbus gravis — og‘ir kasallik: morbus, i, m — kasallik, gravis, e — og‘ir
3. Pars aequalis — teng qism: pars, partis, f — qism, aequalis, e — teng
4. Semen dulce — shirin urug‘: semen, inis, n — urug‘, dulcis, e — shirin

XULOSA. Shakllanayotgan shifokorlarning o‘z mutaxassisligidagi kasbiy terminlarni mukammal bilishi, terminologiyani tushunish, balki undan faol foydalanishning amaliy ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. Bu borada lotin tilida sifat so‘z turkumining lingvistik xususiyatlari, morfologik va sintaktik belgilar, semantik tasnifi hamda boshqa so‘z turkumlari bilan o‘zaro aloqasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinishi, sifatlarning kelib chiqishi, darajalari, kelishik, son va rod kategoriyalari bilan bog‘lanishi misollar asosida yoritildi. Tadqiqot natijalari lotin tili grammatikasini o‘rganishda, xususan, filologiya va tibbiyot yo‘nalishlari talabalari uchun metodik ahamiyatga ega. Atamalar tarkibiy qismida sifat so‘zlarning qo‘llanilishi, ularni sintaktik va semantik tahlilini anglay olishi, kasbiy atama elementlarni tushunishida eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Lotin tilini bilish dunyoning turli mamlakatlaridagi shifokorlarga bir-birlarini to‘laqonli tushunish imkonini beradi va tibbiy ta'limni birlashtirish uchun birlashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yorova, S., & Hasanova, F. (2024). Tibbiy diskursga xos bo ‘lgan kasbiy va kommunikativ kompetensiya. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(8), 68-71.

ISSN 3030-3907

2. Karimovna, Y. S. (2024). Medical Staff Professional Communication Process. Gospodarka i Innowacje., 44, 227-230.
3. Bakhodirovna, E. M. (2024). Structural and functional features of phraseological units in the texts of works of art (english and uzbek authors). Eurasian Journal of Academic Research, 4(2-1), 111-117.
4. Aitmuratova, P., Yorova, S., & Esanova, M. (2023). The role of foreign languages in our life. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(4), 161-164.
5. Baxtiyarovna, B. D., Xolmurodovna, M. S., Nabiyevna, H. K., Maxammadovna, K. N., & Abdumannopovna, R. X. (2019). Modern methods in learning English. International scientific review, (1 (41)), 32-35.
6. Айтмуратова, П. Г. (2022). Важность обучения латинскому языку в медицинских вузах. Science and Education, 3(12), 897-902.
7. Айтмуратова, П. Г. (2024). I-III Склонения имён существительных в латинском языке. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 22(5), 37-42.
8. Mallaevna, N. S., & Khalid, A. (2023, November). Topic chemical terminology of salts. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 226-229).
9. Mallaevna, N. S. (2024). The social and cultural importance of the latin language and its present and historical landscape. Central Asian Journal of Academic Research, 2(5), 51-55.
10. Mardanovich, M. Z., & Mokhigul, O. (2024). Personality in teaching the module of latin and medical terminology in the medical higher education institution. Journal of Universal Science Research, 2(1), 425-435.
11. Mardanovich, M. Z. (2023). Lotin tilining zamonaviy tillarga bevosita va bilvosita ta'siri. Research Focus International Scientific Journal, 2(6), 132-136.
12. Fayzullaev, F. U. "The Role of Critical Thinking in Learning a Foreign Language." JournalNX, vol. 7, no. 1, 2021, pp. 68-70.
13. Beknazarova, M. K. (2022). Lotin tilini o'qitish jarayonida klinik kafedralar bilan integratsiyalashtirilgan mashg'ulotlarning maqsadli yo'naltirilishidagi natijalar. Science and Education, 3(11), 653-656.

ISSN 3030-3907